

XIX ASR MUXAMMASNAVISLIGIDA USLUB VA TASVIR USULLARI

Nazarova Shohista

Qarshi xalqaro universiteti

“Filologiya va tillarni o’qitish”

kafedrası o’qituvchisi,

nazarovashohista@gmail.com

UDK: 894.375=87.(045)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr o‘zbek adabiyotida muxammas janrining taraqqiyoti, uning uslubiy xususiyatlari hamda badiiy tasvir vositalari tahlil qilinadi. Muxammasnavis shoirlar ijodida an‘anaviy aruz vazni, qofiya va radif tizimi bilan bir qatorda, ramziy obrazlar, tashbeh, isti‘ora va tazod kabi badiiy san‘atlarning qo‘llanilishi yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy-falsafiy va ishqiy mavzularning ifodalanishida muxammas janrining o‘rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: XIX asr adabiyoti, muxammas, muxammasnavislik, uslub, badiiy tasvir, poetik san‘atlar, aruz, ramziy obraz.

Назарова Шохиста

Преподаватель кафедры “Филология и преподавание языков”

Каршинского международного университета, nazarovashohista@gmail.com

UDK: 894.375=87.(045)

Аннотация: В статье рассматриваются стилевые особенности и способы художественного изображения в жанре мухаммас в узбекской литературе XIX века. Анализируется поэтика мухаммасов, система рифмы и размера, а также использование традиционных художественных средств, таких как метафора, сравнение, символ и антитеза. Особое внимание уделяется отражению любовно-лирических и социально-философских мотивов в творчестве поэтов-мухаммасистов данного периода.

Ключевые слова: литература XIX века, мухаммас, поэтический стиль, художественное изображение, поэтика, символ, аруз, узбекская литература.

Nazarova Shohista

Teacher at the Department of “Philology and Language Teaching”

Karshi International University,

nazarovashohista@gmail.com

UDK: 894.375=87.(045)

Annotation: This article examines the stylistic features and artistic imagery techniques of the mukhammas genre in nineteenth-century Uzbek literature. The study analyzes poetic structure, including meter and rhyme, as well as the use of classical literary devices such as metaphor, simile, symbolism, and contrast. It also highlights the role of the mukhammas genre in expressing lyrical, social, and philosophical themes within the literary tradition of the period.

Keywords: 19th-century literature, mukhammas, poetic style, imagery techniques, poetics, symbolism, classical poetry, Uzbek literature.

Kirish. XIX asr Xorazm shoirlari ijodida o‘zbek mumtoz adabiyotining bir qator lirik janrlari o‘z takomiliga yetdi. Milliy adabiyotimiz xazinasini yuzlar badiiy yetuk asarlar bilan boyidi. Xususan, ta’rix, muammo, qasida singari janrlar faol istifoda etildi. Turkiy adabiyotda noyob janriy hodisa bo‘lgan ***bahri tavil*** usulida yaratilgan ijod namunalari ayni shu davr adabiy muhitining hosilasi deyish mumkin¹. Bu kabi shakliy izlanishlar o‘zbek adabiyoti mavjud bir qator lirik janrlar misolida ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan muxammasnavislik borasida ham shunday fikrlarni bildirish o‘rinli bo‘ladi.

¹ O‘zbek mumtoz she’riyatida aynan Xorazm shoirlari tomonidan yaratilgan bahri tavillar uchraydi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, Ogahiy, Komil Xorazmiy va Ahmadjon Tabibiy ijodida bittadan bahri tavil borligi aniqlandi – Sh.N.

Asosiy qism: Shubhasiz, Xorazm adabiy muhitida gʻazal janridan keyingi eng faol lirik janr bu – muxammaslardir. Ushbu fikrimizni birgina misol ham dalillaydi. Maʼlumki, har bir shoir lirik merosining koʻlami avvalo, uning sheʼriy devoni orqali oydinlashadi. Ikkinchi oʻrinda oʻz davrida yoki keyinchalik yaratilgan bayozlar shunday muhim manbalardir. Ilmiy manbalarda Xorazm shoirlarining devonlari va bayozlarining koʻchirilishi hamda toshbosma usulida chop etilishi bevosita Xiva xoni Muhammad rahimxon ikkinchi – Feruz tashabbusi va topshirigʻi bilan amalga oshirilgani qayd etiladi. Aksariyat qoʻlyozma bayozlar kolofonida bu oʻz tasdigʻini topgan. Aynan shunday bayozlar baʼzan turli lirik janrlardagi sheʼrlardan tarkib topgan boʻlsa, baʼzan bir janrga mansub sheʼrlar jamlangan bayozlar tuzilgan. Ular orasida faqat muxammaslardan tarkib topgan bayozlar anchayin salmoqli oʻrin egallaydi. Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida “Bayozi muxammasot”, “Muxammasoti mutafarriqa”, “Muxammasot” nomlari bilan oʻnlab bayozlar saqlanayotgani koʻpgina ilmiy tadqiqotlarda taʼkidlangan. Xorazmlik shoir Ahmadjon Tabibiy esa 1909 yilda “Muxammasoti majmuatu-sh-shuaroi Feruzshohiy” tazkirasini tuzib ustozlari va zamonlari qalamiga mansub 190 ta taxmisni tartiblaydi². Koʻrinadiki, Ogahiyning oʻz devon debochasida “bazzmor”, “shakarrez” deya taʼrif bergan muxammas bitish Xorazm adabiy muhitida ijodkor badiiy mahoratini belgilovchi omil sifatida baholangan.

Maʼlumki, ilmiy adabiyotlarda muxammasning yaratilish shakliga koʻra, asosan, ikki shakli qayd qilinadi: *tabʼi xud (mustaqil)* va *tazmin (taxmis)*.

Fors-tojik adabiyotiga oid tadqiqotlarda tabʼi xud (mustaqil) muxammaslar “Erkin muxammas” (muxammasi ozod) istilohi bilan yuritilgan³. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, tabʼi xud muxammaslar bir shoir qalamiga mansub boʻlib, toʻgʻridan toʻgʻri beshlik shaklida yaratiladi. Bu shaklning oʻziga xususiyatlaridan biri – har bir band soʻngida misra, ayrim hollarda bir baytning tarjeʼ qilinishi (takrori) bilan

² Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис. Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.87.

³ Хакимов Д.Р. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII-XIX вв. Автореферат дисс... кан-та филол. наук. – Душанбе, 2019. Стр.14.

bog'liq. Taxmislar esa boshqa ijodkor g'azaliga bog'langani uchun misra yoki bayt tarje'i imkonsiz.

Taxmislar esa o'zga shoir g'azaliga bog'langani uchun ijodkorning salafi yoki o'z zamondoshi bilan ijodiy muloqoti sifatida qaraladi. Taxmis bitish g'azal muallifi bilan hamohanglik, ustozlar fikrlarini davom ettirish va boyitish an'anasidir. Ta'bir joiz bo'lsa, taxmis bituvchi g'azal muallifi bilan ijodiy musobaqaga kirishadi. Tab'iga ma'qul bo'lgan g'azalni tanlab har bir baytning g'oyaviy-badiiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni beshlikka aylantiradi.

Xulosa: Fors-tojik adabiyoti muxammasnavislik masalasini tadqiq qilgan olim D.Xakimov "XII-XIX asrlar fors-tojik adabiyotida muxammas janrining shakllanishi" mavzusidagi tadqiqotida ayni shu davrlardagi muxammas xillarini quyidagi tasniflaydi. 1) muxammasi ozod (tab'i xud muxammas); 2) muxammasi tazmin (taxmis); 3) muxammasi mustazod; 4) muxammasi tarje'band⁴.

O'zbek adabiyotshunosligida ushbu tasnifdagi dastlabki ikki turga mansub muxammaslar haqida so'z boradi. Biz izlanishlarimiz natijasida nafaqat Xorazm muxammasnavisligida, balki o'z mumtoz she'riyatida tarje'band muxammasga duch kelmadik. Biroq muxammasnavislikda kamyob hodisa bo'lgan muxammasi mustazod aynan XIX asr Xorazm muxammasnavisligini bezagan, qolaversa, o'zbek she'riyatida qayta takrorlanmagan poetik shakl ekanini e'tirof etishimiz kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek mumtoz she'riyatida aynan Xorazm shoirlari tomonidan yaratilgan bahri tavillar uchraydi. Kuzatishlarimizga ko'ra, Ogahiy, Komil Xorazmiy va Ahmadjon Tabibiy ijodida bittadan bahri tavi borligi aniqlandi – Sh.N.
2. Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис.Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.87.

⁴ Хакимов Д. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII-XIX вв. Дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2019. Стр. 68-104.

3. Хакимов Д.Р. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII-XIX вв. Автореферат дисс... кан-та филол. наук. – Душанбе, 2019. Стр.14.
4. Хакимов Д. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII-XIX вв. Дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2019. Стр. 68-104.